

O'RINBAYEVA Mukarram Haydarkulovna

Zangiota tumani 38-son Ixtisoslashtirilgan

davlat umumta'lim maktabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17428097>

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bir necha yillik ilmiy-tadqiqot izlanishlar hamda mavjud adabiyotlarning qiyosiy tahlili asosida O'zbekiston Respublikasida shu kungacha oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmaganligi aniqlangan. Mazkur holat natijasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida mavjud ziddiyatli holatlar va ularni bartaraf etishning dolzarb pedagogik masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *grafika, tasviriy san'at, ijodiy faoliyat, eskiz, etyud, qoralama, garmoniya, ijodiy obraz, kompozitsiya, kompetentlik, muammo, kasbiy savodxonlik, ta'lim, madaniyat, mentalitet, pedagogika, ensiklopediya, kitob, kasb.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА КАК ВАЖНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗАДАЧА

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен сравнительный анализ многолетних научно-исследовательских работ и учебно-методической литературы, который показал, что в Республике Узбекистан до настоящего времени недостаточно изучена проблема развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства в процессе преподавания специальных дисциплин в высших учебных заведениях. В результате выявленных особенностей рассматриваются актуальные педагогические вопросы и противоречия, возникающие в процессе формирования профессиональной компетентности будущих педагогов изобразительного искусства.

Ключевые слова: *графика, изобразительное искусство, творческая деятельность, эскиз, этюд, черновик, гармония, творческий образ, композиция, компетентность, проблема, профессионализм, грамотность, образование, культура, менталитет, педагогика, энциклопедия, книга, профессия.*

ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS AS AN URGENT PEDAGOGICAL PROBLEM

ANNOTATION

This article presents a comparative analysis of several years of scientific research and relevant literature, revealing that in the Republic of Uzbekistan, the issue of developing professional competence in teaching specialized subjects to future fine arts teachers in higher education institutions has not yet been sufficiently explored. As a result, the article highlights the existing contradictions and pressing pedagogical issues that arise in the process of developing the professional competence of future fine arts educators.

Key words: *graphics, fine arts, creative activity, sketch, study, draft, harmony, creative image, composition, competence, professionalism, literacy, education, culture, mentality, pedagogy, encyclopedia, book, profession.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi **“Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ–289-son qarorida** “Oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlash va o’qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish” bo’yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

Darhaqiqat, oliy ta’lim tizimiga ilg’or xorijiy tajribalarni joriy etish, o’quv-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, shu jumladan, bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish bugungi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi ko’p yillardan beri jahon pedagogikasi sohasida ilmiy tadqiqotlar markazida bo’lib kelmoqda. Shu sababli, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o’quv-uslubiy majmualardan samarali foydalanish asosida bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini shakllantirish muhim ilmiy-pedagogik vazifalardan biridir.

Bugungi kunda bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda malakali mutaxassislariga bo’lgan ehtiyoj ortib borar ekan, muqobil ta’lim tizimlari paydo bo’layotgan bir paytda, ayniqsa, kelajak avlod tarbiyasi uchun mas’ul bo’lgan tasviriy san’at o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirish ikki karra muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ta’lim natijalarini bashorat qilish va ta’lim jarayonlarini modellashtirish zarurati ham tobora ortib bormoqda.

Ta’limga oid qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish vositasi bo’lmish pedagogik texnologiyalardan yanada kengroq foydalanish zarurligi qayd etilgan. Ushbu talab, o’z navbatida, yosh avlodning tasviriy savodxonligini oshiradigan o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlash va badiiy-pedagogik ta’lim sohasida strategik reja asosida faoliyat yuritish zaruratini belgilaydi. Bu holat tasviriy san’at fani bo’yicha bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashga yo’naltirilgan asosiy kasbiy ta’lim dasturining maqsadi bilan bevosita bog’liqdir.

Fan, texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilariga qo’yilayotgan yangi va yuqori talablar, shuningdek, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid pedagogik shart-sharoitlar, mexanizmlar, metodlar va texnologiyalarni takomillastirish zaruriyati – bularning barchasi yechimini kutayotgan dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Mazkur muammolarning asosiy sababi – kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni ta’minlovchi texnologiyalarning hali yetarlicha mukammal ishlab chiqilmaganidir.

Muammoning pedagogik dolzarbligi shundaki, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali texnologiyalarni joriy etish zarur.

Mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi **“Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4688-sonli Farmoyishida** belgilangan vazifalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bo'lajak tasviriy, amaliy san'at va dizayn yo'nalishidagi o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan dolzarb masalalardan yana biri - **tasviriy san'at ta'limiga bo'lgan munosabatni o'zgartirishdir**. Ilmiy manbalarda bolaning rivojlanish bosqichlari uning qiziqishlari bilan chambarchas bog'liq ekani, bu jarayon dastlab tasviriy faoliyat ustuvorligida kechishi asoslab berilgan. Biroq, bolalarning qiziqish yo'nalishlari faqat ularning ta'limiy ehtiyojlari va rejalari bilangina emas, balki ota-onalar, jamoatchilik, hattoki ta'lim tizimi mutasaddilarining bu fan va san'at sohasiga bo'lgan munosabatlari bilan ham bevosita bog'liqdir. Mahalliy tadqiqotchi **A. Sulaymonovning** ta'kidlashicha, so'nggi yillarda sohada ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, tasviriy san'at faniga yetarli e'tibor berilmayotgan holatlar hanz uchrab turadi.

Kasbiy kompetentlik masalasiga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, “kompetensiya” va “kompetentlik” atamaları ilk bor XX asr o'rtalaridan boshlab ilmiy adabiyotlarda qo'llanila boshlandi. Masalan, tilshunoslik nazariyasida **N. Xomskiy** o'zining “Sintaksis nazariyasi aspektlari” asarida *kompetensiya* atamasini til egasining o'z ona tilidan real nutq jarayonida ongli ravishda foydalanish qobiliyati sifatida izohlaydi. U kompetensiyani insonning ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish layoqati, deb talqin etadi.

Taniqli pedagog olim **B.B. Gershunskiy** kompetentlikni “savodlilik”, “ta'lim olganlik”, “madaniyat”, “mentalitet” kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'liq holda o'rganadi.

Shuningdek, **P.V. Paydukov** o'z dissertatsiya tadqiqotida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga quyidagicha ta'rif beradi:

“Kompetensiya – ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsning bilim, ko'nikma va malakalarini samarali qo'llay olish qobiliyatidir; kompetentlik esa – mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mavjud va potensial layoqatdir.”

Olimlar **A.K. Markova** va **O.A. Qo'ysinovlarning** ilmiy ishlarida kasbiy kompetentlik mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini mukammal egallaganlik darajasini ifodalovchi sifat ko'rsatkichi sifatida talqin etiladi. Ularning fikricha, bu tushuncha mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabati, shaxsiy sifatlarini baholay olish qobiliyati, kasbiy o'sishini to'g'ri yo'naltira bilishi, o'zini doimiy takomillashtirish va tarbiyalashga intilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotchilar kasbiy kompetentlik tuzilmasini uch tarkibiy qismda ko'rsatadilar: **mazmuniy, motivatsion va ijro etish (amaliy)** komponentlar.

B.X. Xodjayev va **D.A. Mustafayevalarning** fikricha, “kompetensiya shaxsning yangi tajribani o'zlashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z faoliyatini integratsiyalash jarayonlarini ta'minlaydigan sifat” sifatida namoyon bo'ladi. **N.A. Muslimovning** ilmiy ishlarida kompetentlik – bu alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishi ekanligi ta'kidlanadi.

N.A. Muslimov va **K. Abdullayeva** fikricha, kompetentlik – bu olingan nazariy bilimlar, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy tarzda qo'llay olish darajasidir. U talabalar amaliyot jarayonida hamda oliy ta'limdan keyingi faoliyatda shakllanib boradi. Kompetensiya tushunchasi ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, malaka, shaxsiy fazilatlar va amaliy tajribani qo'llash qobiliyati sifatida ta'riflanadi. “Kompetensiya – ta'lim orqali olingan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va niyatlar asosida shakllangan umumiy qobiliyatdir. Kompetensiya bilim yoki ko'nikmaga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmaydi; kompetentlik olim yoki o'qimishli odam bo'lishni anglatmaydi”. Kompetensiya va ko'nikma o'rtasidagi farqni aniqlash lozim.

Ko'nikma – bu muayyan vaziyatda bajariladigan harakat, kompetensiya esa xatti-harakatlar va ko'nikmalarning kuzatuvlaridan o'rganilishi mumkin bo'lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko'nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiya mahorat va harakatni kuchaytiradi hamda ongli faoliyat natijasida shakllanadi.

Davlat ta'lim standartida kasbiy va umumiy kompetensiyalar, ya'ni bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar aniq belgilangan. Ularni asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali amalga oshirish mumkin. Dasturning variativ qismi ta'lim muassasasining, mintaqaning o'ziga xosligini, shuningdek, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi.

Kasbiy kompetentlik asosida aks etuvchi sifatlarning mohiyatini qisqacha yoritib, "kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan, deb hisoblash mumkin. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlarda, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

J.E. Usarov o'z ilmiy ishlarida kompetensiyani "ma'lum soha yoki yo'nalishdagi tajriba va bilimlar, faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikning namoyon bo'lishi hamda shaxsning turli nostandart holatlarda muvaffaqiyatli harakat qila olishi" sifatida ta'riflagan.

Taniqli rus pedagoglari V.A. Adolf va V.A. Slastenin fikricha, kasbiy kompetentlik aniq ifodalangan amaliy xususiyatga ega bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra u yoki bu fanni o'qitishning aniq qurish masalalari bo'yicha kengaytirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi.

R.H. Safarova va R.H. Jo'rayevlar muharrirligida 2015 yilda chop etilgan "Pedagogika: ensiklopediya" kitobida "kasb" yoki "kasbiy" tushunchalari maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni egallagan shaxsning jismoniy imkoniyatlari, aqliy qobiliyatlari hamda yuridik huquqlari asosida shug'ullanadigan mehnat faoliyati turi sifatida ta'riflangan.

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur bo'lgan malakalarni tez va samarali egallashni maqsad qilgan pedagogik jarayondir. Kasbiy tayyorgarlik – aniq kasbiy faoliyat doirasida ish bajarishga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi jarayon sifatida ta'riflanadi.

Yuqorida taqdim etilgan olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, tasviriy san'at o'qitish metodikasini chuqur egallagan va o'zining individual uslubiga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchini kasbiy kompetent deb hisoblash mumkin. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalari tasviriy san'at o'qitish metodikasining aniq mezonlari bo'lgan kasbiy kompetentlikka ega bo'lishlari lozim. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari nafaqat metodikani o'zlashtirishi, balki pedagogik mahorat asoslarini ham bilishlari zarur. Shu sababli bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi tushunchasi mazmuni va tuzilmasi hamda oliy ta'lim jarayoni sharoitida uni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashtirish zarur.

Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash borasida xorijiy mamlakatlardagi ta'lim mazmunini o'rganish shuni ko'rsatdiki, G'arb mamlakatlarida pedagogning kompetentlik malaka darajasi asosiy o'rin tutadi. Mamlakatimizning milliy ta'lim tizimida esa ta'lim mazmunining minimal talablari bilim, ko'nikma va malakaga asoslanadi. Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganish talab etiladi. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish murakkablik tug'diradi, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kirib kelgan bo'lib, u fanlarda yetarlicha chuqur o'rganilgan va mustahkam o'rin egallagan. Yangi ta'limiy jarayonlarning natijasi sifatida esa pedagogika fanining tushunchalari tizimiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan, didaktik tushunchalar tizimiga to'laqonli tegishli emas.

Bir necha yillik ilmiy-tadqiqot izlanishlar va adabiyotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida hozirgacha oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasiga oid ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Bu holat quyidagi ziddiyatli muammolar mavjudligini ko'rsatadi:

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish tamoyillari, mazmuni, metod va zamonaviy vositalari yetarlicha ishlab chiqilmagan;
- mutaxassislik fanlarini integratsiyalashning pedagogik mohiyati to'liq yoritilmagan;
- tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar keng ommalashtirilmagan;
- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi tushunchasi mazmun-mohiyati haqida zarur bilimlar yetishmaydi.

Shu bilan birga, ta'limda kasbiy kompetentlikka yo'naltirilish pedagogik jihatdan dolzarb bo'lib, "kasbiy kompetentlik", "kasbiy kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" atamallari ta'limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama qilishda tobora ko'proq qo'llanilmoqda va keng tarqalmoqda.

N.A. Muslimovning "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish" monografiyasida "kompetent" va "kompetentlik" tushunchalarining etimologik tahlili orqali ularning tasodifan yuzaga kelmaganligi ko'rsatilgan. Kompetentlik bo'lajak mutaxassis tomonidan faqatgina alohida bilim va malakalarni egallash emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini anglatadi, deya ta'kidlaydi N.A. Muslimov.

N.A. Muslimov va K. Abdullayeva ilmiy ishlarida kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasi hamda talabning amaliyot jarayonida va oliy ta'limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradigan omil sifatida qaraladi. Tadqiqotda kompetensiya tushunchasi ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun bilim, malaka, shaxsiy fazilatlar va amaliy tajribani qo'llash qobiliyati sifatida yoritilgan.

D.O. Ximmataliyevning "Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy komponentlikni rivojlantirish mexanizmi" nomli tadqiqotida "kompetensiya" va "ko'nikma" terminlari farqlanadi. "Kompetensiya – ta'lim orqali olingan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va niyatlar asosida shakllangan umumiy qobiliyatdir; kompetentlik – olim yoki o'qimishli odam bo'lishni anglatmaydi.

Ko'nikma – muayyan vaziyatda bajariladigan harakat, kompetensiya esa xatti-harakatlarning va ko'nikmalarning kuzatuvlaridan o'rganilishi mumkin bo'lgan xarakteristik xususiyatidir," deydi tadqiqotchi. N.A. Muslimov, M. Usmonboyev va M. Mirsoliyevalarning o'quv-uslubiy ishlarida kasbiy kompetentlik asosini tashkil etuvchi xususiyatlarga aniqlik kiritilgan va "kompetentlik" tushunchasi ta'lim tizimiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgani ta'kidlangan. Shuningdek, kompetentlik "kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, noan'anaviy vaziyatlarda muloqotga kirishishi, raqiblar bilan munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

D.O. Ximmataliyev kasbiy kompetensiyalar, ya'ni bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar Davlat ta'lim standartida belgilab qo'yilganini va ularga asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda integrativ yondashuv orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Dasturning variativ qismi ta'lim muassasasining, mintaqaning o'ziga xosligini, hududdagi ish beruvchilarning aniq kasbiy kompetensiyalarni egallagan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini aks ettirish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, ko'nikmalar amalda mutaxassisning kompetentligi sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiya mahorat va harakatni kuchaytiradi hamda ongli faoliyat natijasida shakllanadi.

O.A. Quysinovning "Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari" nomli ilmiy tadqiqotida bo'lajak o'qituvchining maxsus kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyat olib boriladigan muassasa va faoliyat yo'nalishiga, ya'ni umumta'lim maktabi, kasb-hunar kolleji, akademik litsey kabi muassasalarning o'ziga xos talablariga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, turli toifadagi bolalar va ota-onalar bilan ishlaydigan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi ham alohida e'tiborga loyiqdir.

A.K. Markovanning "Psixologiya professionalizma" ilmiy ishida kasbiy kompetentlik mehnat psixologiyasi kontekstida maxsus predmet sifatida ko'rib chiqilgan. L.A. Petrovskaya va N.V. Kuzminalarning ilmiy ishlarida esa o'qituvchi kompetentligiga oid mulohazalar ilgari surilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy faoliyati va kreativligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan deb hisoblaymiz. Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitishning eng muhim vazifasi – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishdir.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish ularning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Bu sifatni sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik bilimlar, o'qitish metodlari va texnologiyalarining sintezi ta'minlanishi lozim. Kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni fan va ta'lim sohalaridagi o'zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ushbu jarayon bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini asoslash va kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini o'rganish bo'yicha mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kunda ham muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishi kamaymayapti, bu esa oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va rivojlantirishning hozirgi bosqichida mazkur masalaning pedagogik dolzarbligini tasdiqlaydi. Keyingi paragraflarda ushbu masalaga batafsil to'xtalamiz.

N.A. Muslimov, Q.M. Abdullayeva, O.A. Quysinovlarning ilmiy ishlari tahlil qilinganda, muammo yuzasidan oliy ta'lim muassasalari faoliyati o'rganilib, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlangan. Xususan:

– OTM bitiruvchilari, jumladan tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining etuk mutaxassis sifatida bilim darajasi bilan Davlat ta'lim standartining zamonaviy mazmuni va hajmiga qo'yilayotgan me'yoriy talablar hamda individual imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik;

– Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida qo'llanilayotgan an'anaviy va ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'rtasidagi tafovut;

– Pedagog va uning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mutaxassis tayyorlovchi muassasalarning faoliyati bilan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini rivojlantirish omillari hamda qonuniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlik;

– Pedagogik turkum fanlarning tasviriy san'at o'qituvchisi shaxsiy va kasbiy kompetentligini shakllantirishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi;

– Yangilanib borayotgan jamiyat va kommunikatsion taraqqiyot sharoitida mahoratli pedagog shaxsiga qo'yilayotgan ortib boruvchi talablar bilan tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy qismi – o'z-o'zini rivojlantirishga tayyor emasliklari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'llaridan biri – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishdir, deb hisoblaymiz.

IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES

1. Bakhtiyarova, S. M. (2021, May). Questions of preparing future teachers for artistic Gafur Abdurakhmanov analysis of works of fine art in school. *Euro-Asia Conferences*, 5(1), 17. <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>
2. Абдирасилов, С. (2021). Изобразительное искусство Узбекистана в патриотическом и эстетическом воспитании школьников. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/logos/article/download/10245/9742>
3. Махкамова, С. Б. (2021). Вопросы подготовки будущих учителей к художественному анализу произведений изобразительного искусства в школе. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(4), 44–53. www.oriens.uz
4. Tojiyev, B., & Mahkamova, S. (2013). Manzarada atrof-muhitdagi narsalarning suvdagi aksini tasvirlash. *Pedagogik ta'lim jurnali*, (2), 94–97.
5. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). Creative technologies for the development of students' creative activity through art education. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*. <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/logos/article/view/10146>
6. Makhkamova, S. B. (2024). The formation of visual arts skills of schoolchildren in performing sketch, composition and creative works. *European Journal of Arts*, (1), 63–66. <https://doi.org/10.29013/EJA-24-1-63-66>
7. Fayzullayevich, S. A. (n.d.). O'zbekistonda do'ppido'zlik maktablarining o'ziga xosligi va ularning amaliyotdagi o'rni. *Conference Zone*, 23–28.
8. Mahkamova, S. (n.d.). Tasviriy san'at asarlarini badiiy taxlil qilishda rassom Kamoliddin Behzod ijodidan foydalanish masalalari. *Journal of Culture and Art*, 1(8), 107–114.
9. Ravshanovich, J. R. (n.d.). The study of teaching applied decorative arts in higher education institutions through software solutions: A review of methodological literature. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(10), 106–111.
10. Kultasheva, N. (n.d.). O'zbekiston davlat san'at muzeyi rangtasvir kolleksiyasining elektron katalog platformasini yaratish: istiqbollari va natijalari. *Scientific Journal of Mathematical Knowledge and Applied Research*, 1(01), 33–36.
11. Nasritdinova, U., Sul'tonov, X., Muratov, H., Ankabaev, R., & Ismatov, U. (n.d.). Application of geoinformation systems in the agricultural complex. *BIO Web of Conferences*, 105, 03005.
12. Talipov, N. N. (2024). The stages of development of the art of engraving in ancient period and the Middle Ages. *European Journal of Arts*, (1), 67–71. <https://ppublishing.org/archive/publication/975-the-stages-of-development-of-the-art-of-engrav>
13. Махкамова, С. Б. (2023). Художественные способности учащихся в школе и как они проявляют свои творческие способности в этюдах, композиционных вариантах, в своих художественных произведениях. *Oriental Art and Culture*, 4(5), 311–326.